

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI BILIMLARINI  
TEKSHIRISHDA TEST USULLARIDAN  
FOYDALANISH.**

*Umbarova Nasiba Xolboy qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti,  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

*[umbarovanasiba@96gmail.com](mailto:umbarovanasiba@96gmail.com)*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti,  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi*

*Rashidova Maftuna*

**Annotatsiya**

Boshlang'ich sinflarda o'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash, yangi mavzuni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirish hamda majburiy standart nazorat ishi darslarida testlardan foydalanish o'qituvchining mehnat unumdorligini oshirish, vaqtni tejash, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish kabi bir qator afzalliklar, imkoniyatlar yaratadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda darsning qay tartibda olib borilishiga ham bog'liq. O'quvchilarning bilimini baholashda test eng foydali va samarali usul hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, milliy o'quv dasturi, test, boshlang'ich sinf, standart, takrorlash, umumlashtirish, dars, mantiqiy fikrlash, mehnat unumdorlik, baholash, savodxonlik, unumdorlik, natija.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

“Ta'lim to'g'risidagi qonun va milliy o'quv dasturi”da o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash vazifasi qo'yilgan. Ushbu masalani hal etilishi ko'p jihatdan o'qitishning test usullarini qo'llashga ham bog'liqdir. Test birinchi bor 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o'qituvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlarini dastlab psixologiya fanlari doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E.Toridayk tomonidan ishlab chiqildi. Psixologiya va pedagogika test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik metodlar ham qo'llana boshlandi. Bunday metodlar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga qiziqish o'quv qobilyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish:

## **1.aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarni yaratish va qo'llash**

**2.o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga** mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlana boshlandi. Qobliyatni belgilash va baholash bo'yicha, ayniqsa; iqtidorli-ist'edodli bolalarni aniqlash bo'yicha psixologik testlar, shuningdek, kasbga yo'naltirish maqsadida, xodimlarning tayyorgarlik darajasini belgilash va ularni saralash maqsadida testlar rivojlangan mamlakatlarda kengroq qo'llana boshlandi.

### **NATIJARLAR**

Mustaqil O'zbekiston MDH davlatlari ichida 1993 yil martda birinchi bo'lib, jahon pedagogika faniga «darcha» ochdi va rivojlangan mamlakatlar pedagogikasidagi ilg'or tajribalarni o'rganishni imkoniyatini yaratdi. O'zbekiston ta'lim tizimida bilimni test usulida baholashga, nazorat qilishga davlat siyosati maqomini berilishi ana shunday yutuqlardan biri bo'lib hisoblandi. Pedagogik testlar keng miqyosda, birinchi martda o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanildi. Pedagogik testlarni zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, matematik statistika, matematika, kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. Bunday usullarning keng tarqalgan samarali turlaridan biri darslarda testlarni qo'llashdir. hozirgi kunda testlar maktabda, kollejda, abituriyentlarni oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda, xarbiy xizmatda, maslahat markazlarida va yana ko'plab sohalarda keng qo'llanilmoqda. Ilgarilari testlardan bunday ko'lamda foydalanish hali yaxshi yo'lga qo'yilmagan edi. Testlash – fandagi yosh yo'nalishlardan biridir.

Test – ingliz tilidan tarjima qilinganda «sinov», «tekshirish» degan ma'noni anglatadi. Test deb bilim, ko'nikma va malakalarini murakkab texnik moslamalarsiz qisqa muddat ichida standartlashtirilgan holda tekshirishga aytiladi. Tetsning afzalligini quyidagicha baholash mumkin:

- nazorat uchun kam vaqt sarflanadi;**
- nazariy va amaliy bilimlar darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkoniyatini beradi;**
- ko'p sonli o'quvchilar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin;**
- bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi;**
- barcha o'quvchilarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, bir xil sharoitlar yaratiladi.**

Nazorat jarayonini faollashtirish, kam vaqt ichida ko'p sonli o'quvchilarni nazorat qilish uchun bir qancha ratsional uslublar, jumladan, texnik vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflarda o'tilgan mavzuni so'rash va mustahkamlash, yangi mavzuni mustahkamlash, takrorlash va umumlashtirish hamda

majburiy standart nazorat ishi darslarida testlardan foydalanish o'qituvchining mehnat unumdorligini oshirish, vaqtni tejash, o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish kabi bir qator afzalliklar, imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida e'tirof etilmoqda. Yuqorida aytib o'tilganidek, boshlang'ich sinflarda testlardan foydalanish hozirgi kunning dolzarb mavzularidan biridir. Quyida test turlari bilan tanishamiz.

1) Javoblarni mosini toping.

$$\begin{array}{l} X+12=25 \\ 5*x=60 \end{array} \begin{array}{l} \rightarrow x=12 \\ \rightarrow x=20 \\ \rightarrow X=13 \end{array}$$

2)Shaklda nechta to'rtburchak bor.



3)Ikkita bir xil shaklni toping.



4). Sizning eng yaxshi o'yinchog'ingiz qaysi biri?



1-rasm



2-rasm



3-rasm

3). Berilgan qatordagi koptoklarni sanab chiqing , birinchi qatorda nechta koptok bor, ikkinchi va uchinchi qatorda nechta koptok bor. Qaysi qatorda koptoklar soni ko'p va nechta ortiq ?



1-qatorda

2-qatorda

3-qatorda

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining savodxonligini oshirishda darsning qay tartibda olib borilishiga ham bog'liq. O'quvchilarning bilimni baholashda test eng foydali va samarali usul hisoblanadi. Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat . Test o'quvchilar tafakkurining o'sishiga, bilim mahbaining

ko'payishiga xizmat qiladi. Test metodining afzalliklari va kamchiliklarini aytadigan bo'lsak testing bir qancha afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Birinchi navbatda test metodidan foydalanganda o'quvchilar har xil variantli testlarni ishlaydilar. Afzalliklari quydagilar: nazorat uchun kam vaqt sarflanadi; nazariy va amaliy bilimlar darajasini ob'ektiv sharoitda aniqlash imkoniyatini beradi; ko'p sonli o'quvchilar bilan bir vaqtning o'zida nazorat olib borish mumkin; bilim natijalari o'qituvchi tomonidan tezkorlik bilan tekshiriladi; barcha o'quvchilarga bir xil qiyinchilikdagi savollar berilib, bir xil sharoitlar yaratiladi. Kamchiliklari esa test ba'zi o'quvchilarni dangasa qilib qo'yadi. Ayniqsa yopiq turdagi testlardan dars jarayonida foydalanganda o'quvchilarni darsni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash oson bo'ladi. Variantli testlardan esa o'quvchilar testni shunchaki yodlab testni bajarishi ham mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Z.Normatov, N. Ismoilova "Matematika darslarida testlardan foydalanish "(metodik tavsiya) Namangan – 2008 yil
2. Umbarova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISHNING ILMIY-METODIK JIHATDAN TAKOMILLASHTIRILISHI (QOG'OZ VA KARTON MISOLIDA). Евразийский журнал академических исследований, 3(2 Part 2), 49-53.
3. Umbarova Nasiba Xolboy qizi "BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNOLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN:2181-1784 3(1/2), Jan., 2023 [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz)
4. Umbarova, N., & Rashidova, M. BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA AMALIY ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI. BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIGA INTEGRATIV YONDASHUV: NAZARIYA VA AMALIYOT Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami, 284-285.
5. Umbarova, N. (2023). BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI UCHUN YANGI AVLOD DARSLIKLARINING JORIY ETILISHI. *Interpretation and researches*, 2(1).
6. Umbarova Nasiba "Methodology of Organizing Lessons for Primary School Technology Teacher with Paper and Carton" International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, Volume 15 (40-45-page) 2022 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>
7. Yakibova Dilorom Sharifovna, Umbarova Nasiba Kholboy qizi "FORMS OF ORGANIZATION OF PRACTICAL WORK IN TECHNOLOGY CLASSES " TJE - Tematics journal of Social Sciences ISSN 2277-3010 Vol-7-Issue-6 2021 <http://thematicsjournals.in>.
8. Ashurov N.R, Umbarova N.X. Boshlang'ich sinif texnologiya darslarida qog'oz va kartondan amaliy ishlarni tashkil etishda o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. "Monografiya" Denov -2022, 160 b.